

CF 430 35

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI**

151800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,  
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz

2022 йил 13 yanvar

Yaypan shahri

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING**  
**QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA**  
**HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi : **Shartnoma.**
2. Loyihaning nomi: **1-sonli shartnoma.**
3. Loyihani ishlab chiqqan tashkilot: **O'zbekiston tuman tibbiyot birlashmasi.**
4. Loyiha yuzasidan ma'lumot:

Tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 14.01.2022 yildagi "SHIFO" MChJ bilan qiymati 4 999 600 (to'rt million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming olti yuz) so'm bo'lgan dori vositalari sotib olish to'g'risidagi 1-sonli shartnoma loyihasi taqdim qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo'jalik shartnomalarining subyektlari (taraglari) bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksning 41-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi.

Fuqarolik kodeksining 44-moddasi birinchi qismiga muvofiq yuridik shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritiladi.

Taqdim etilgan loyihaga ilova qilingan hujjatlarga ko'ra 15.08.1994 yilda "SHIFO" MChJga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma berilgan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismiga ko'ra, xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada

bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak. Shartnoma loyihasida mazkur Qonun talablariga amal qilingan holda mazkur shartlar nazarda tutilgan.


Fuqarolik kodeksining 108-moddasiga asosan yuridik shaxslarning o'zaro bitimlari oddiy yozma shaklda tuzilishi belgilangan. Taqdim etilgan shartnomasi oddiy yozma shaklda tuzilgan. Shartnomaga shartnoma tuzish vakolati bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi lozim.

Taqdim etilgan hujjatlarni o'rgangan holda va yuqoridagilarga asosan:

### XULOSA

Tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 14.01.2022 yildagi "SHIFO" MChJ bilan qiymati 4 999 600 (to'rt million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming olti yuz) so'm bo'lgan dori vositalari sotib olish to'g'risidagi 1-sonli shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasi, 10-moddasi birinchi qismi, Fuqarolik kodeksining 41, 44-moddasi birinchi qismi, 108-moddasi talablariga muvofiq hisoblanadi.

Markaz bosh yuriskonsul'ti



A.Turdialiyev

# ShARTNOMA №1

“ 14 ” Yanvar 2022 yil.

Yaypan shahri.

Ushbu shartnoma bir tomondan “Shifo” MChJ nomidan boshqaruv raisi A.Mamadaliyev vakilligida kelgusida “Ijrochi” va ikkinchi tomondan O‘zbekiston tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘i X.A.Qurbonov vakilligida kelgusida “Buyurtmachi” o‘rtasida har ikki tomonning amaldagi “Nizom”lari va O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

## I. Shartnoma predmeti.

1.1 “Ijrochi” “Buyurtmachi”ga ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati *499,9600 (To‘rt million to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz ming olti yuz) so‘m* (summa raqam va so‘z bilan yoziladi)

bo‘lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida “Tovar” deb nomlanadi)ni spetsifikatsiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.

1.2. “Ijrochi” esa o‘z navbatida ushbu “Tovar” lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo‘limida belgilangan shartlar asosida “Buyurtmachi” ga to‘laydi.

## II. To‘lov tartibi.

2.1. “Buyurtmachi” shartnoma imzolanganidan so‘ng yetkazib berilishi lozim bo‘lgan “Tovar” umumiy qiymatining 30 % ni oldindan *1499,880* so‘m miqdorda “Ijrochi” ning hisob-raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘laydi. Yetkazib berilgan “Tovar” lar to‘lovining qolgan, ya‘ni 70 % qismi esa “Buyurtmachi” tomonidan “Tovar” qabul qilib olingandan so‘ng 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida to‘liq to‘lab beriladi.

## III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

### 3.1. “Ijrochi” ning huquq va majburiyatlari:

3.1.1. “Buyurtmachi” tomonidan “Tovar” umumiy narxining 30 foizi “Ijrochi” ning hisob raqamiga oldindan to‘langandan so‘ng “Ijrochi” “Buyurtmachi” ni “Tovar” bilan ta‘minlaydi.

3.1.2. “Ijrochi” “Buyurtmachi” ga tegishli hujjatlar asosida “Tovar”ni belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. “Ijrochi” “Buyurtmachi” ga qulaylik yaratish maqsadida “Tovar”ni o‘z transport vositalarida “Iste‘molchi” ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati “Ijrochi” tomonidan qoplanadi.

3.1.4. “Ijrochi” ning transport vositasida yetkazilgan “Tovar” ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan “Buyurtmachi” “Ijrochi”ning vakili ishtirokida “Tovar” yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi “Ijrochi” tomonidan to‘ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o‘z vaqtida amalga oshirilmasa e‘tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. “Ijrochi” Sog‘liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan “Tovar”lar bilan “Buyurtmachi”ni ta‘minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz “Buyurtmachi” “Tovar” ni olishga haqli emas. Transport harajatlari “Buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

### 3.2. “Buyurtmachi”ning huquq va majburiyatlari:

3.2.1. “Ijrochi” “Buyurtmachi” dan shartnoma tuzilgandan so‘ng yetkazib berilishi lozim bo‘lgan “Tovar” uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to‘lagandan so‘ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, “Tovar”ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. “Buyurtmachi” “Ijrochidan” dan O‘zbekiston Respublikasida farmakologik ro‘yxatdan o‘tkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o‘ramlari amaldagi farmatsevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo‘lgan “Tovar”larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan “Tovar” sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, “Buyurtmachi” “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq “Tovar”ni qabul qilishni hamda ularning haqini to‘lashni rad etib, “Ijrochi”dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan “Tovar” qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

## IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. “Buyurtmachi” tomonidan “Ijrochi”ga berilgan yillik berilgan buyurtmalarni “Buyurtmachi” ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to‘liq olishi shart. Aks holda “Buyurtmachi”dan O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) “Tovar” summasining 5 foizi, tez buziladigan “Tovar”lar bo‘yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi

4.3. “Ijrochi” tomonidan yetkazib berilgan “Tovar” uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lov haqi “Buyurtmachi” tomonidan o‘z vaqtida amalga oshirilmasa, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining

shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuning 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortik bo'lmagan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.

4.4. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi" ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni "Ijrochi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

#### V. Fors-major xolatlari

5.1. Taraflardan hech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

#### VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda "Ijrochi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

#### VII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

7.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuniga qadar amal qiladi.

#### VIII. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

"Ijrochi"

**«ШИФО» МЧЖ**

«Шифо» МЧЖ Ўзбекистон туман  
Яйпан шаҳри Туркистон кучаси 209 уй  
Х/Р- 20208000700223323001  
МФО – 00792 ИНН – 200190740  
ОКОНХ- 71212  
тел: 99891510903

boshqaruvi raisi:



A.Mamadaliyev.


"Buyurtmachi"

**Ўзбекистон туман tibbiyot birlashmasi**

manzil: Konizar qishlog'i g'alaba №45  
x/r: 100022860302307072110054001  
bank: Markaziy bank Toshkent  
STIR: 200189162 OKONX 91511  
G'aznachilik bo'linmasi nomi:  
Respublika Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
Markaziy bank Toshkent shahar Bosh  
boshqarmasi XKKM  
Yagona g'azna x/v: 23402000300100001010  
MFO: 00014 STIR: 201122919  
Tel: \_\_\_\_\_

Rahbar:

(imzo, muxr, F.I.O.)



Ўзбекистон туман Тиббиёт бирлашмаси ҳамда "ШИФО" МЧЖ дорихонаси уртасида тузилган **4999600** сум булган "14" январь 2022 йил кунги №1 шартномага асосан имтиезли беморларга январь ойида берилган дори - дармонлар учун

### СПЕЦИФИКАЦИЯ

14 январь 2022 йил

Яйпан шаҳри

№	Дори номи	улчов бирлиги	миқдори	нархи	суммаси
1	Морфин г/х 1% 1мл	амп	319	5300	1690700
2	Морфин г/х 1% 1мл	амп	95	5700	541500
3	Сибазон 0,5% 2мл №10	уп	3	14500	43500
4	Трамадол 50мг/мл 2мл №5	уп	144,8	15000	2172000
5	Трамадол капс 50мг №20	уп	3,5	14000	49000
6	Фенобарбитал 0,1 №10	уп	18	3300	59400
7	Фенобарбитал 0,1 №10	уп	15	3500	52500
8	Циклодол 2мг №50	уп	39,1	10000	391000
<b>Жами:</b>					<b>4999600,00</b>
<b>Турт миллион туққиз юз тўқсон туққиз минг олти юз сўм</b>					

"ШИФО" МЧЖ дорихонаси.  
Яйпан шаҳар Туркистон куча 209 уй  
х/р:20208000700223323001  
Халк банки МФО:00792  
ИНН:200190740 ОКОНХ:71212

Ўзбекистон туман Тиббиёт бирлашмаси  
Конизар мавзеси  
х/р:100022860302307072110054001  
Банк: Марказий Банк Тошкент ХККМ  
ИНН:2001891 ОКНХ:91511

